

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

3
2020



www.xtjurnali.zn.uz

<https://t.me/xalqtaimijin>



XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

3-son
(may-iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi – salomatlik asosidir



TALIM VA TARBIIYA NAZARIYASI

6	Q. Xamidov	Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida pedagogik sohani yuksaltrishning istiqbolli yo'nalishlari
10	B. Ma'murov, I. Xamraev, B. Ma'murov	Zamonaviy sharoitda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
14	Adilba Baxronova	O'qituvchilarni darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda oila bilan hamkorlikka o'rgatish masalalari
18	N. Davronov	Sog'lom avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarining ahamiyati
20	A. Sattorov	Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari
25	R. Kadirov	Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning pedagogik - psixologik xususiyatlari
30	R. Shukurov	Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirish
35	S. Abduyeva	Tizimli yondashuv asosida talabalar jismoniy tarbiya bo'yicha ilmiy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari
38	G'. Salimov, J. Jalolov	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sport turlari bo'yicha jismoniy tarbiya to'garaklarini tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari
41	B. To'xtayev, S. Turayev, O. Tursunov	Jismoniy tarbiya va sport sohasining pedagogik o'lchov metodlari



TALIM VA TARBIIYA METODIKASI

45	N. Muxitdinova, A. Afraimov	Sport mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlanish ko'rsatkichlari
49	I. Saidov	Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasi
52	M. Fatullayeva	Maktab o'quvchilari uchun (11-12 yoshli) yengil atletika sport mashg'ulotlarining asosiy vosita va uslublari
56	M. Abdullayev	Yengil atletikachilarni tayyorlashda (10-12 yoshlilar) jismoniy tayyorgarlik dinamikasini aniqlash mezonlari
61	N. Sabirova	Ta'lim muassasalarida futbol o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish strategiyasi
66	S. Qurbanov, K. Yodgorov	Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayoni
69	M. Abdullayev, Z. Turayeva	Qizlar jismoniy tayyorgarligida sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarining ahamiyati
73	Q. Arslonov, F. Muzafarova, J. Jo'rayev	Kurash usullarini yangi bosqichda o'rgatish texnologiyalari









A. T.



R.

У. Ф. а. р.

	R. Raxmonov	78	O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'rita masofaga yugurish dimamikasini tahlil qilish ahamiyati
MUSIQA VA SAN'AT TALIMI			
	S. Azimov	82	Kasbiy fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining mahoratlarni shakllantirish uslublari
	D. Mamatov	86	Geometrik obrazlar vositasida o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish va uning psixologik asoslari
MAKTABGACHA TALIM			
	D. Kurbanov, A. Toshv, Z. Yusupova	92	Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari
	G. Hasanova	96	Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy ongini shakllantirish
PSIXOLOGIYA			
	Sh. Abdullayev, A. Toshv	99	O'smirlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etishda ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikning o'rni
XALQARO TAJRIBA VA TALIM INTEGRATSIIYASI			
	G' Salimov, N. Bozorova	103	Maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya faoliyatini tashkil qilishda xorijiy tajribadan foydalanish ahamiyati
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ			
	Ш. Кадиоров, Х. Курбанов	109	Важность уроков физической культуры в пропаганде здорового образа жизни у детей
	Ф. Фазлиддинов, М. Тошев	112	Физическая культура и спорт как фактор формирования социального здоровья молодежи
	Д. Муратов	116	Профилактика вредных привычек подростков средствами педагогики физической культуры
	Н. Назарова, Н. Орипова	122	Особенности направления детей на спортивную деятельность
	А. Ибрагимов	126	Особенности развития интеллектуальных способностей школьников на уроках физического воспитания
	Т. Чориев, К. Кобилжонов	130	Роль речевого этикета в воспитании подрастающего поколения
МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ			
	Р. Хасанов, Я. Файзилов, М. Тураев	135	Репрезентация принципов и методов физического воспитания в вузах
	У. Фарманов, Ш. Давронов	139	Методика применения игровых упражнений для совершенствования техники бросков на уроках баскетбола

Adiba BAXRONOVA,
Buxoro davlat universiteti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

O'QITUVCHILARNI DARS DAN TASHQARI TARBIYAVIY FAOLIYATDA OILA BILAN HAMKORLIKKA O'RGATISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda oila bilan hamkorlikka o'rgatish haqida fikr yuritilgan bo'lib, oilaviy tarbiyaning ahamiyati, tarbiya va qadriyatlarini shakllantirish jarayonida oila va maktabning o'zaro hamkorligi ochib berilgan. Shuningdek, bu jarayonda pedagogning roli asoslangan va matakali pedagog kadrlarni tayyorlash muammosi o'rganilgan.
Kalit so'zlar. Bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, oilaviy tarbiya, oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, hamkorlik, tarbiyaviy faoliyat, yondashuv.

В статье речь идет о подготовке будущих учителей начальных классов во внеурочной воспитательной деятельности в сотрудничестве с семьей, раскрывается важность семейного воспитания, взаимодействия семьи и школы в процессе воспитания и формирования ценностей. Также, была изучена проблема подготовки квалифицированных педагогических кадров на основе роли педагога в этом процессе.

Ключевые слова. Будущий учитель, начальное образование, семейное воспитание, семейные духовно-нравственные ценности, сотрудничество, воспитательная деятельность, подход.

This article deals with the training of future primary school teachers in extracurricular educational activities in cooperation with the family, reveals the importance of family education, the interaction of family and school in the process of education and the formation of values. Also, the problem of training qualified teachers based on the role of the teacher in this process was studied.

Key words. Future teacher, primary education, family education, family spiritual and moral values, cooperation, educational activities, approach.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda oila bilan hamkorlikka o'rgatish muammosi o'ta dolzarb masalalardan bo'lib, ushbu hamkorlikning nazariy asoslari pedagogik sinfga doirasida tadqiq etilmoqda. Pedagogik sinergika, ya'ni o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda muhim ahamiyatga ega. Bu o'z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuv bo'lib, mazkur nazariya faoliyatni tashkil etish hodisasi bilan bog'liq bo'lgan yangi dunyoqarashdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar belgilab berilgan. Unga ko'ra pedagogik hamkorlik jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari jadal shakllanadi. Chur-

ki boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyat darajasi kengayib, ijodkorlik imkoniyatlari va o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmalari tarkib topadi. Xalq pedagogikasi, odob-axloqning oilaviy tarbiya va qadriyatlar tizimini shakllantirish sohasidagi yutuqlari va tajribasini o'rganish, zamonaviy yosh avlodning kelajagini loyihalash uchun poydevor hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga o'rgatishda oila bilan hamkorlik masalalari milliy va xorijiy pedagogikaning to'plangan tajribalaridan foydalanish, zamon talablariga mos ravishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mantiqiy modernizatsiyalash asosida muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

So'nggi vaqtlarda zamonaviy oilaning ijtimoiy-pedagogik vazifalariga taalluqli bo'lgan global darajadagi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mazkur jarayon ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining umumiy ijtimoiy, iqtisodiy tendensiyalari, iste'molchilik tuzilmasining xususiyatlari va boshqalar bilan bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi shakllangan yangi sharoitlar yosh avlodning o'z oilasini qurishga tayyorlash jarayonida oilaviy tarbiyada ko'pgina muammolarni yuzaga keltirdi, shaxsning qadriyatlar tizimi, jumladan, oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va mustahkamlash zarurati mavjudligini ko'rsatdi. Zamonaviy sharoitlarda oiladagi muammolarning oqibati sifatida qator muammolar ko'zga ko'rinadi, ular qatorida ota-onalarning ma'naviy-axloqiy savodxonliklari yetarli shakllanmaganligi, yosh avlodning jamiyat, millat va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini yetarli his etmasligi kabilarni ajratish mumkin.

Manbalar tahlili olimlar oilaviy tarbiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatdi:

- jismoniy, ma'naviy va axloqiy sog'lom bolani tarbiyalash, bolaning rivojlanish imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun zaruriy ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni ta'minlash;

- tarbiyaviy ta'sirning uzluksizligi, davomiyligi va xilma-xilligini nazarda tutish;

- hissiy himoyalanganlik, mehr-oqibat muhitini, bolaning his-tuyg'ulari va idroki rivojlanishi, uning o'zini-o'zi amalga oshirishi uchun sharoitlarni yaratish;

- oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, idealning, madaniy an'analarni, yaqin insonlar o'rtasida va jamiyatda o'zaro munosabatlarning axloqiy shakllarini egallash, xulq-atvor madaniyatini, to'g'ri so'zlik, adolatlilik, qadr-qimmat, g'urur, insoniylik, yaqin insonlarga g'amxo'rlik qilish, mehr-oqibat, hamdardlikni tarbiyalash;

- bolani ongli fuqaro sifatidagi vatanparvarlik hissini tarbiyalash;

- estetik did va hislarni, hayotda va san'atda go'zallik va xunukni ajratish, insonlar

- xulqidagi yaxshilikni hurmat qilish ko'nikmasini shakllantirish, ijodiy amaliy faoliyat uchun

- sharoitlarni ta'minlash;

- avlodlarning ma'naviy birligini ta'minlash, oilaviy an'analarni, oilaviy merosni saqlash, oilaviy shajarani o'rganish;

- bolalarni xalq an'alariga, urf-odat va marosimlarga jalb etish, ularda milliy ongini

- va o'zini-o'zi anglashni tarbiyalash.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, oilaviy tarbiya – shaxsning barkamol rivojlanishiga yo'naltirilgan, bir necha avlodning o'zaro munosabatlari muhitida bolalarning ijtimoiylashuvlari shakli sifatida milliy ta'lim tizimining ajralmas qismi ekanligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Tarbiyaning barcha ko'rsatib o'tilgan jihatlari bolalarda oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi axloqiy munosabatlarning sonining butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning ta'siri kuchli his-tuyg'ular bilan bog'liq, ularda insonning atrof-muhit, mehnat, umuman jamiyatga axloqiy munosabatlarning asoslari shakllanadi.

riy boshqa yondashu ammlarn asosida h masalalar Aksic asosiy m ning falsaz va o'quv byektlara da aksio ifodalast tarbiyavi dologiya umumim Yuk tashqar birinchi chidan. bevosit uchinci loqiy q iliklarin Si uni ins batga lar va

oglar bda maqtash ta murt. ang q [4]. asosida fura. data. avur. i. nning ma'naviy madaniyatining yuqori darajasi, oila institutini ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida boshlang'ich ta'lim davri ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki pedagog faoliyatining maqsadi yosh avlodni ma'naviy yuq. salish, oilaviy qadriyatlar, o'zini bo'lajak hayotiga mas'uliyatli shaxs sifatida anglashga yo'naltirish bo'lishi kerak.

Shu tariqa, o'quvchilarning oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalash jara-yonining metodologik asosini ilmiy bilimning umumnazarly va dialektik prinsiplari, naza-riya va amaliyotning birligi, shaxs nazariyasining konseptual qoidalari, oilaviy tarbiyaning etnopedagogik tajribasi, atrof-olamning hodisa va jarayonlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi falsafiy qoidalar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalash bo'yicha falsafa va pedagogikaning yetakchi g'oyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va o'quvchilarning barkamol rivojlanishlari g'oyalari, pedagogik hodisalarning tahliliga tizim-li-tuzilishli va faoliyatli yondashuvlar, o'qitishda individual, tabaqalashgan yondashuvlar, ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkil etish shakllariga in-novatsion yondashuvlarning zamonaviy nazariy asoslari, madaniy, ta'limiy muhitni de-mokratlashtirish va insonparvarlashtirish konsepsiyalari tashkil etishi kerak.

Qo'yilgan vazifalarni hal etishda asosiy ilmiy-pedagogik yondashuvlar qo'llanilishi mumkin: Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. O'quvchilarning darsdan tashqari oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalashga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv prinsipi har bir insonni betakror noyob shaxs sifatida qarash, o'quv-tarbiya jarayonida uning yu-tuqlarini doimo namoyon etish va ta'kidlashni talab etadi. O'quvchilarning oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalashga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda mahsuldor ijodiy faoliyat asosiyga aylanadi, alohida ko'nikma va malakalar tizimini hosil qilishga yo'naltirilgan reproduktiv faoliyat esa asosiy faoliyatga nisbatan yordamchi sifatida qe-raladi.

Shaxsiy-ijtimoiy yondashuv. Milliy pedagogika g'oyalari va an'analari ustuvor hisob-lanadi, zamonaviy ilmiy nazariyalar nuqtai nazaridan o'rganiladi, tarbiya shaxsning iji-moiylashuv va insonparvarlik muhitida uning individualligini rivojlantirishni birlashtiruvchi yaxlit jarayon sifatida talqin etiladi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuv. Bu muayyan shaxs rivojlanishining psixologik va pe-dagogik qonuniyatlariga asoslanadigan metodologik sintezidir. Shaxsiy-faoliyatli yo-n-dashuv ta'limning ustuvor vazifalari to'g'risidagi tasavvurni tubdan o'zgartiradi. Vazila-shaxs sifatlarini rivojlantirishda nafaqat bilimlarni, faoliyat usullari, me'yor va qadriyatlar-ni egallashdan, balki shaxsning intellektual va axloqiy imkoniyatlarini, uning murakkab ijtimoiy sharoitlarda o'zini erkin his etish, ijodiy jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatini namoyon etishdan ham iboratdir. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv o'quvchilarning o'quv-lar-biya jarayonida va darsdan tashqari amalga oshadigan faol subyektlar sifatida shakllanish-laridan iborat.

Madaniyatshunoslik yondashuvining mohiyati insonparvarlashtirish va gumanitar-lashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, u dunyo va milliy madaniy qadriyatlarini saqlashi va qayta ifodalashga yo'naltirilgan, insonda madaniyat va axloqni tarbiyalashdan ibor-rat. Madaniyatshunoslik faoliyati ma'lum bir ifodali faoliyat hisoblanmaydi, balki ixtiyor

o'rtasida" Sharh 271 mah Hpa Hay

riy boshqa faoliyatning o'ziga xos ichki jihati sifatida xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik yondashuvi biz uchun alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ijtimoiy-madaniy muammolarni aniqlash, ularni zamonaviy madaniyatga mos bo'lgan g'oyalari va prinsiplar asosida hal etish, zamonaviy pedagogikani yangicha anglashga imkon beruvchi yangi masalalarni qo'yishga yordam beradi.

Aksiologik yondashuv o'quvchilarni darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyat jarayonining asosiy metodologik prinsiplaridan biri hisoblanadi. Pedagogika mazmunida qadriyatlarining falsafiy nazariyasiga murojaat etish ta'lim mazmuni va tuzilishini, bilimlari, pedagog va o'quvchilar voqelikka qadriyatli munosabat bilan birlashadigan subyekt-obyekt va subyektlararo munosabatlari sohasi sifatida qarashga imkon beradi. Alohida shaxs darajasida aksiologik yondashuv pedagogik ta'sirni amaliyotida uning aktual ijtimoiy qadriyatlarini ifodalashning optimal yo'llarini amalga oshirishga yo'naltiradi. Zamonaviy qadriyatlarini tarbiyaviy jarayonning insonparvarlik yondashuvini ifodalab, pedagogikaning yangi metodologiyasini asoslaydilar, bu o'z navbatida ta'lim jarayonining qadriyatlar tizimini hamda umuminsoniy qadriyat sifatida ta'limni ajratishga imkon beradi.

Yuqorida aytilganlarga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda oila bilan hamkorlikka o'rgatish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu, birinchidan, ijtimoiy fuqarolik instituti sifatida oilaning ahamiyatini oshirish zarurati, ikkinchidan, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalashda oila va maktabning bevosita o'zaro aloqalarini ta'minlash maqsadida o'qituvchiga talablarining ortib borishi, uchinchidan, o'qituvchilarning umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalash bo'yicha oila bilan hamkorlikdagi faoliyatga kasbiy tayyorliklarining yetishmasligi.

Shu tariqa, oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tarbiyalashni batafsil o'rganish va uni insoniyat taraqqiyotining zamonaviy darajasi hamda jamiyat modernizatsiyasini inobatga olib, hozirgi davrda qo'llash yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ko'pgina pedagoglar va ota-onalar duch keladigan qator murakkab muammolarni hal etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori.
2. Giddens Entoni. *Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.* – T.: Sharq, 2002. – 848 b.
3. O'zbek pedagogikasi tarixi // A.Zunnunov tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1997. – 271 b.
4. Tojiboyeva X.M. *O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida maktab, mahalla va ota-onalar hamkorligi // Uzluksiz ta'lim.* – Toshkent, 2017. – №4. – B.75-79.
5. Акутина С. П. *Формирование у старшеклассников семейных духовно-нравственных ценностей во взаимодействии семьи и школы: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01.* – Н. Новгород, 2010. – С. 511.